



## ISAJON SULTON ASARLARIDA PARANORMAL OBRAZLAR VA BADIY PSIXOLOGIZM

**Jabborova Pokiza Orziqulovna**  
*Toshkent Amaliy fanlar universiteti*  
*magistranti*  
*+998946361686*  
*[pokizajabborova16@mail.ru](mailto:pokizajabborova16@mail.ru)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada paranormal obrazlar va badiiy psixologizm masalasi Isajon Sulton asarlari misolida keng tahlil qilinadi. Tadqiqotda nazariy va amaliy jihatlar uyg'un holda yoritilib, paranormal epizodlarning qahramon ruhiyatini ochishdagi o'rni ko'rsatib beriladi.

**Kalit so'z:** paranormal obraz, badiiy psixologizm, epizod, ong osti, simbolizm, Isajon Sulton.

**Kirish:** O'zbek adabiyotida 20-asrning 90-yillarida keng tarqala boshlagan "Paranormal obrazlar" bugungi kunda adabiyot sevuvchilar va psixologiyada aniq tushunila boshlagan va qabul qilingan teminga aylandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Avvaliga psixologiyaga oid termin va tushuncha deb qaralayotgan bu tushuncha bugungi kun adabiyotida o'z aksini namoyon qilmoqda. Yozuvchilarimiz o'z asarlarida inson ruhiyati va undagi o'zgarishlarni o'quvchiga yetkazib berishda "Paranormal obrazlar"dan keng foydalanmoqda. "Paranormal obrazlar"ning din va diniy tushunchalar, diniy kitoblarimiz bilan bog'liq tomonlarini ham yoritib berishdi. Miflar, folklor, maishiy turmush tarzida doimo duch kelinadigan g'ayritabiiy voqealar, mavhum hodisotlar azal-azaldan badiiy adabiyotga ko'chgan va bu ilmiy-nazariy tushuncha sifatida umumiy ma'noda ilmiy atama bilan izohlanmagan. Ammo jin, ajina, iblis, shayton, oziqchi, alvasti, olabo'ji, arvoh, qoraxayol, yovuz ruhlar kabi tashqi olam kuchlari folklorshunoslikda demonologik personajlar atamasi ostida o'rganilgan. Biz ilmiy istiloh sifatida olib chiqqan hodisa – paranormallik aynan poetik hodisa sifatida qaralar ekan, bu tushuncha o'z-o'zidan yo obraz, yo syujet, yo detal, yo motiv yoki biz tadqiq etayotgan "epizod" tushunchalari bilan birikkandagina muayyan badiiy-estetik mohiyat kasb etadi. Paranormal epizodlar real hayotda uchrab kelgan, badiiy asarlarda g'ayritabiiy tarzda tasvirlangan voqelik bo'lib, ilmiy ta'rifi quydagicha: g'ayritabiiy, g'ayrioddiy va ratsional mantiq bilan tushuntirib bo'lmaydigan voqelik, zamonning to'rtinchi, makonning yettinchi o'lchamiga oid, ekstrimal holat-vaziyatlardagina real olam sarhadlarida kuzatilishi mumkin, uchinchi ko'z, oltinchi sezgi bilan ko'riladigan parapsixologik hodisaning badiiy asar syujeti ichidagi kichik epizod tarzida tasvirlanishidir. Demak bugungi kunda o'rganayotgan va keng tarqalayotgan bu tushuncha insonlarda bugun yoki kecha paydo bo'lgan tushuncha yoki xis emas, avvaldan mavjud bo'lgan lekin tushunilmagan yoki tan olinmagan xis-siyotlardan biri bo'lgan degan xulosaga kelsak bo'ladi. Uning adabiyotdagi qiyofasi bugungi kun adabiyotida


yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Shulardan biri O‘zbek adabiyotining yorqin namoyondalaridan Isajon Sultonidir.

**Manbalar tahlili:** Isajon Sulton asarlarida “Paranormal obrazlar” turli xil obrazlarda o‘z ifodasini topad va adib uni me‘yorida yoritib bera olgan.

Jumladan Isajon Sultonning “Onaizorim” va “Munojot” qissalarida “paranormal epizodlar” bola obrazining chuqur xayolot va tush mahsuli, ong osti bolalik qo‘rquvlarining samarasi, ruhiy-psixologik xavotirning mahsuli sifatida tajassum topadi. Ra‘no va G‘arib obrazida bolalarcha beg‘ubor va sof xayollar ta‘sirida paydo bo‘lgan xafvsiz va ziyon yetkazmaydigan yaratilqlar, sirli hodisotlarning yangicha talqini aks etadi.

Paranormal holatlar G‘arib tabiatidagi g‘ayrioddiylik bilan uyg‘un va bir-biriga chambarchas bog‘liq holatda tasvirlanadi. U “...ko‘zim uyquga ketay-ketay deganda ko‘rina boshlaydi shunaqa sharpalar. Tush bilan hushning orasidan qalqib chiqishadi... O‘sha odam tepamda uzoq o‘tiradi, [I.Sulton. Munojot.] deydi. Bu tasvirlar G‘arib obrazidagi illyuzion va galyutsinatsion holatlar bilan bog‘liq. U o‘zining botiniy olamida yolg‘iz, ruhan o‘zga olamda sayr etadi; onasining ta‘biri bilan aytganda, jismonan hayot kechirishga noqobil. Ammo G‘arib oddiy insonlar ko‘ra olmaydigan, ilg‘amaydigan narsalarni, hodisotlarni anglay oladi, tafakkur dunyosi keng, qalbi she‘riyatga va san‘atga oshufta. G‘arib ilohiy va ruhoniyl quvvatga ega, ichki intuiativ bilim bilan his etish qobilyati bor, “tush va hush” orasidagi olamdagi obrazligiga muallif asarning ko‘p o‘rinlarida ishora qiladi. Xususan, “Tush va o‘ng oralig‘ida qandaydir oppoq kiyingan kimsalarning kelishi va ularning insonga o‘xshamasligi, tasavvurida maysalarning gapirishi hamda go‘yo jonsizday tuyulgan narsalarning ham aslida jonli ekanligi kabi voqealarning bejiz emasligini u aniq-tiniq bilib turardi”, [I.Sulton. Munojot.] kabi tasvirlar yuqoridagi fikrimizni dalillaydi.

Ma‘lumki, paranormal hodisalar biz yashayotgan o‘lchamdan tashqarida, ya‘ni vaqt va makonning noma‘lum qatlamlarida sodir bo‘ladi. Muallif ta‘biri bilan aytganda bular – shuur bilan anglanadigan va aql bilan tasdiqlanadigan narsalar emas edi – ular faqat his qilinar edi. [I.Sulton. Munojot.] Qissada vafotidan so‘ng insonning ruhi bir tanadan ikkinchi tanaga yoki hayvonot va nabotot olamida qayta tirilishi haqidagi nazariya – reinkarnatsiya G‘arib misolida ilgari suriladi. Asarda keltirilgan o‘zining bir vaqtlar daraxt bo‘lgani va butaga aylangan zohid haqidagi tasvirlari fikrimizni tasdiqlaydi. Bunday estetik nuqtayi nazar jahon adabiyotiga xos bo‘lib, so‘nggi yillarda o‘zbek adabiyotida o‘zgacha talqinda bo‘y ko‘rsata boshladi. Bu haqida adabiyotshunos Uzoq Jo‘raqulov shunday deydi: “G‘arb ma‘naviyatini, xususan, adabiyotini yemirib, bugungi ruhiy inqiroz chohiga tashlagan ikki madaniy-falsafiy faktor bor. Ularning biri, hind va xitoyning buddaviy e‘tiqodi asosida turuvchi reinkarnatsiya – ruhning bir jonzotdan ikkinchisiga ko‘chishi haqidagi ta‘limot bo‘lib, qachonlardir unga ergashgan beqaror G‘arb sinov uchun yaralmish insonning tozarish imkoniyatlari cheksizligiga soddalarcha ishonib qoldi va ko‘p xatolarni xato bilmay qo‘ydi”. G‘arib obrazi haqida adabiyotshunos Bahodir Karimov quyidagicha fikr bildiradi: “Bir narsa aniqki, qissa qahramoni ruhiy-g‘aybiy olamga oshno etilib, dunyo falsafasidagi, xususan, hind va yunonlardagi inson ruhining o‘lgandan keyin boshqa narsaga ko‘chish haqidagi “tanosuh”



e'tiqodiga bog'lab qo'yiladi". Diniy ahkomlarimizga ko'ra, bunday g'ayri e'tiqodiy qarashlar, ya'ni o'lgan odamning ruhi yana shu dunyoga hayvon yoki o'simlik bo'lib kelishi botil amal hisoblanadi. Zero, inson vafot etgandan keyin ruh tanasini tark etadi va bundan keyingi hayoti ruhning ko'chishi tarzida davom etishi ma'rifiy va ilmiy haqiqatlarga ziddir. Muallifning reinkarnatsiya nazariyasiga oid qarashlari tanqidiy mulohazalarga yo'l ochadi.

Badiiy psixologizm adabiyotda insonning ruhiy holatlari, ichki qarama-qarshiliklari va ong ostidagi his-tuyg'ularini chuqur tahlil qilishga qaratilgan usuldir. Badiiy psixologizm o'zining ruhiy holatini tushunmaslik, ichki iztiroblar, xayol va kechinmalar asosiy o'rin tutadi. Bu usul yordamida shaxsning ichki dunyosi, uning qarorlari, yuksalish va qulashlaridagi psixologik jarayonlar ko'rsatiladi. Isajon Sultonning "Ayriliq" hikoyasi ham aynan shunday psixologik konfliktlarni o'zida mujassam etadi.

Isajon Sultonning hikoyasida psixologizm birinchi o'rinda, ajralish va chegaralarning nafaqat tashqi, balki ichki asoratlarini ko'rsatadi. Inson psixologiyasining murakkabligi va uning ijtimoiy va siyosiy jarayonlarga qanday ta'sir qilishi o'rganiladi. Matnda, shaxslar o'rtasidagi ajralishlar va bularning ruhiy holatga ta'siri badiiy psixologizmning aniq namunalari.

Badiiy psixologizmning dastlabki ko'rinishi: "Ayriliq" va shaxsning ichki iztirobi hikoyaning boshida, "Юртинг қизил тошлари қондан қизарган..."<sup>74</sup> (I.Sulton, 1992) degan satrlar orqali hukumat va xalq o'rtasidagi chegaralarning psixologik asoratlari ta'sirida paydo bo'lgan ruhiy iztiroblar ko'rsatiladi. U yerda ifodalangan "қизил тошлар" va "қондан қизарish" tasvirlari, chegaralar ortida qolgan odamlarning ruhiy holatini aks ettiradi. Bu o'xshatishlar, ajralishning psixologik portretini yaratadi, ya'ni tashqi omillar (chegaralar, ajralishlar) shaxsning ichki holatini qanday shakllantirayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, bu obrazlar orqali xalqning hammasi, ya'ni ajralgan va bir-biriga qaram bo'lgan shaxslarning ruhiy iztiroblari ifodalanadi.

Hikoyada ko'rsatilgan psixologik holatlar, shaxsiyatning ichki iztirobi, o'zini yo'qotish va qayg'u kabi holatlar ham badiiy psixologizmning elementlari sifatida ishlatiladi. "Бу ерда чегара бўлиши керакмасийди, биласан-а?"<sup>75</sup> (I.Sulton, 1992) degan so'zlar, ya'ni erkinlik va ajralishning psixologik og'riqlari ustida fikr yuritish, shaxsning ichki dunyosidagi ta'sirlarning o'rganilishi bilan bog'liq.

Badiiy psixologizmning ikkinchi ko'rinishi: Ichki dialoglar va ruhiy iztiroblar

Hikoyada psixologizmning ikkinchi jihati shaxslar o'rtasidagi ichki dialoglar va ruhiy izdoshlikda ko'zga tashlanadi. Shaxslarning o'zaro suhbatlari, ularning ichki dunyosidagi qarama-qarshiliklarni ochib beradi. Masalan, "Сиз у ёқларда бўлгансиз, кўпроқ биласиз, тўғри жавобдан қочади Особист." (I. Sulton, 1992) so'zi, har bir shaxsning o'zining ichki qarorlariga bo'lgan qat'iyati va ong ostidagi harakatlarga ishora qiladi. Bu dialoglar, psixologizmning markaziy unsuri sifatida, shaxslarning bir-biriga nisbatan ruhiy holatlarini va ichki keskinliklarini o'ziga xos tarzda aks ettiradi.

<sup>74</sup> <https://uzsmart.ru/kutubxona/asarlar/1427-ayriliq-hikoya-isajon-sulton.html>

<sup>75</sup> <https://uzsmart.ru/kutubxona/asarlar/1427-ayriliq-hikoya-isajon-sulton.html>

Bahodir Karim, psixologik adabiyotda ichki dialoglarni, xususan, tashqi voqealar bilan bog‘lanmagan, lekin shaxsning ichki dunyosidagi qarama-qarshiliklarni ochib beradigan o‘rinlarni e‘tirof etgan. Uning ta‘kidlashicha, “Badiiy psixologizm asarda shaxsning ruhiy jarayonlarini, uning hissiy holatini va ong ostidagi kechinmalarini tahlil qilish orqali amalga oshadi” (B. Karim, 2003). Isajon Sultoning asarida ichki dialoglar orqali personajlarning psixologik holati, siyosiy bosimlar va ajralishlar bilan bog‘liq fikrlarni anglash imkonini beradi.

Badiiy psixologizmning uchinchi ko‘rinishi: ajralish va yolg‘izlik

Hikoyadagi "Айрилиқ, айрилиқ, омон айрилиқ..."<sup>76</sup> kabi qo‘shiqlar orqali ajralishning faqat tashqi emas, balki ichki, ruhiy og‘rig‘i ham tasvirlanadi. Bu qo‘shiqdagi so‘zlar, ajralishning o‘zgaruvchan, lekin chuqur iz qoldiruvchi psixologik holatini aks ettiradi. Qishloq aholisi bir-biriga nisbatan qayg‘u, ajralish va bir-birini yo‘qotishning murakkab psixologik holatlarini qo‘shiqda ifodalaydi.

Qozoqboy Yo‘ldashevning psixologizm haqidagi tahlilida, u psixologik tahlilning asarda shaxslarning ichki xafsalasizliklari va ularning hissiy jarayonlarini ochishda muhim ekanligini ta‘kidlaydi. “Ajralishning ichki jihatlari, shaxsning o‘ziga bo‘lgan munosabatini qanday o‘zgartiradi” (Q. Yo‘ldashev, 2005). Shu tarzda, hikoyada ajralishning ta‘siri nafaqat tashqi ko‘rinishda, balki shaxsning hissiy holatida ham ko‘rsatilgan.

Isajon Sultoning “Ayriliq” hikoyasida badiiy psixologizm kuchli va muhim element sifatida ishlatilgan. Hikoya ichidagi psixologik jarayonlar, ajralishning ruhiy asoratlari va shaxslarning ichki muammolari orqali nafaqat ijtimoiy va siyosiy masalalar, balki insonning ichki dunyosi ham o‘rganiladi. Badiiy psixologizm nafaqat psixologik konfliktlarni, balki ijtimoiy-siyosiy voqealarning insonlarning ruhiyatiga qanday ta‘sir qilishini ham ko‘rsatadi. Hikoya, badiiy psixologizmni tasvirlashda, shaxslarning ichki dunyosidagi iztiroblar, qarama-qarshiliklar va hissiy jarayonlarni aniq tarzda ochib beradi.

Hikoyadagi psixologizmni kengroq tarzda tahlil qilish uchun, asarning barcha qahramonlarining ruhiy holatini, ularning ichki kurashlarini, o‘zaro qarama-qarshiliklarini chuqurroq tahlil qilish zarur. Hikoya nafaqat tashqi voqealar, balki har bir qahramonning ichki dunyosi, hissiyotlari va qarama-qarshiliklari haqida tasavvur beradi. Hikoyaning psixologik tahlili, asarda qo‘llanilgan badiiy psixologizmni o‘rganish va undagi obrazlar, motivlar va ichki qarama-qarshiliklarni aniqlashga imkon yaratadi.

Uzoq Jo‘raqulov, Islom Yoqubov va Erkin Xudoyberdiyevlarning badiiy psixologizm haqidagi fikrlariga asoslanib, asardagi obrazlar va ularning ichki dunyosini yanada chuqurroq tahlil qilamiz.

Simvolizm va ruhiy jarohatlar

Asarda simbolizmning katta roli mavjud. “Qismat” hikoyasida qahramonlarning ruhiy jarohatlari va iztiroblari bir-biriga bog‘langan ramzlar orqali tasvirlanadi. Hikoyadagi asosiy ramz – baliq. Hikoya qahramonlaridan biri bo‘lgan Kichik o‘g‘il uni “ Tilla baliq” deb ataydi.

<sup>76</sup> <https://uzsmart.ru/kutubxona/asarlar/1427-ayriliq-hikoya-isajon-sulton.html>



Sir akalariga oshkor bo'lgandan keyin. Uning iztiroblari, psixalogik kechinmalari shu tarzda namoyon bo'ladi:

“U tilla baliq edi.

Boshida toji ham boriydi.

Agar kichik akam sirni ochib qo'ymaganida, katta akam uni enamga pishirib bermaganida... o'sib-o'sib bir kuni rosmana tilla baliq bo'lardi.

O'shanda hammamiz borib, tutib olardik, baliq “Tila tilagingni” derdi, bizlar ham tilagimizni aytardik.

Endi men nima qilay? Tilaklarim, istaklarim mo'l edi, kimga aytay?

Faqat Xudogami?.. Yolg'iz Xudogami?”<sup>77</sup> Bu jarohatlar nafaqat tashqi dunyo bilan bog'liq, balki qahramonning ichki dunyosini tashkil etuvchi psixologik kechinmalarning aksidir. Bu jarohatlar, hikoyaning davomida qahramonning rivojlanishiga va o'zligini anglash jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Yozuvchi bu jarohatlarni ramzlar va tasavvurlar orqali o'quvchiga yetkazadi, shuning uchun hikoya nafaqat tashqi ko'rinishdagi holatlar, balki qahramonning ichki izlanishlari va ruhiy holatlarini ham taqdim etadi.

#### **Xulosa:**

1. Uning asarlari syujeti hamda kompozitsiyasini janrda qo'yilgan muammolarning hal etilishini nazarda tutib shakllantirgan va har bir asarda zamonaga mos keladigan, kishilarning e'tiborini torta oladigan qiziqarli syujetlar topa bilishga intilgan. Asarlarda hech kutilmagan voqealar talqini bo'lgan syujetlar ham borki, bu yozuvchilarning nasrda o'ziga xos yo'li, maqsadi bo'lganligini tasdiqlaydi.

2. Xulosa qilib aytganda, “Paranormal obrazlar” muallif asarlarida yorqin yoritib berilgan. Bundan tashqari muallifning asarlaridagi ruhiyat, badiiy psixologizm zamonamiz kishilarining yurak tubidagi kechinmalarini, qalb tug'yonlarini, quvonch, sog'inch, iztiroblarini junbushga keltiruvchi, hayot mantig'ini topishga yordam beruvchi mayoqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://uzsmart.ru/kutubxona/asarlar/1427-ayriliq-hikoya-isajon-sulton.html>
2. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/isajon-sultonov-1967/isajon-sulton-qismat-hikoya>

<sup>77</sup> <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/isajon-sultonov-1967/isajon-sulton-qismat-hikoya>